https://wordlyknowledge.uz/index.php/gpble
Qabul qilingan sana: 07.12.2025
Nashr etilgan sana: 30.01.2026

Ilmiy rahbar: **G‘aniev Baxodir Sadikjanovich**

Farg‘ona Davlat Universiteti, f.f.d., professor

Xolmatov Ixtiyor Baxtiyorovich

Farg‘ona Davlat Universiteti

Sotsiologiya yo‘nalishi magistranti

e-mail ihtiyor0586@gmail.com, ,

+998916600577 @Holmatov007

“YEVROOSIYO MINTAQASIDA TURKIY DAVLATLAR TARIXI VA MADANIYATI HAMDA MINTAQAVIY BARQARORLIGINI TA’MINLASHDA SPORTINING ROLI, IJTIMOIY TAHLILI”

Annotatsiya. Mazkur maqola Markaziy Osiyoda mintaqaviy birdamlikni mustahkamlashda sportning o‘rni, ayniqsa, O‘zbekistonning bu boradagi liderlik vazifasini tahlil qilishga bag‘ishlangan. Kecha, bugun va ertaga uchala vaqt o‘lchovida O‘zbekiston sportining rivoji, uning mintaqa davlatlari bilan integratsiya jarayonlariga ta’siri o‘rganiladi. 2024-yil Parij Olimpiadasi misolida Markaziy Osiyo davlatlari o‘rtasidagi sport birdamligi va mintaqaviy barqarorlikka qo‘shgan hissasi tahlil qilinadi.

Kalit so‘zlar. Markaziy Osiyo, O‘zbekiston sporti, mintaqaviy birdamlik, barqarorlik, Parij Olimpiadasi 2024, madaniy diplomatiya, kurash, sport diplomatiyasi, milliy sport turlari, Markaziy Osiyo o‘yinlari.

"ИСТОРИЯ И КУЛЬТУРА ТЮРКСКИХ ГОСУДАРСТВ В ЕВРАЗИЙСКОМ РЕГИОНЕ И РОЛЬ СПОРТА В ОБЕСПЕЧЕНИИ РЕГИОНАЛЬНОЙ СТАБИЛЬНОСТИ: СОЦИАЛЬНЫЙ АНАЛИЗ"

https://wordlyknowledge.uz/index.php/gpble
Qabul qilingan sana: 07.12.2025
Nashr etilgan sana: 30.01.2026

Аннотация. Данная статья посвящена анализу роли спорта в укреплении региональной сплоченности в Центральной Азии, особенно в контексте лидерской роли Узбекистана в этом процессе. Исследуется развитие спорта в Узбекистане на трех временных отрезках: вчера, сегодня и завтра, а также его влияние на процессы интеграции с другими странами региона. На примере Олимпийских игр в Париже 2024 года рассматривается вклад спортивного единства стран Центральной Азии в региональную стабильность.

Ключевые слова: Центральная Азия, спорт Узбекистана, региональное единство, стабильность, Олимпийские игры Парижа 2024, культурная дипломатия, борьба, спортивная дипломатия, национальные виды спорта, Игры Центральной Азии.

"HISTORY AND CULTURE OF TURKIC STATES IN THE EURASIAN REGION AND THE ROLE OF SPORTS IN ENSURING REGIONAL STABILITY: A SOCIAL ANALYSIS"

Abstract. This article is dedicated to analyzing the role of sport in strengthening regional unity in Central Asia, with a particular focus on Uzbekistan's leadership in this regard. The development of Uzbekistan's sport is studied across three temporal dimensions: the past, present, and future, along with its influence on integration processes with other regional countries. Using the example of the 2024 Paris Olympics, the contribution of sports unity among Central Asian countries to regional stability is analyzed.

Keywords: Central Asia, Uzbekistan sport, regional unity, stability, Paris 2024 Olympics, cultural diplomacy, wrestling, sports diplomacy, national sports, Central Asian Games.

Kirish

https://wordlyknowledge.uz/index.php/gpble
Qabul qilingan sana: 07.12.2025
Nashr etilgan sana: 30.01.2026

Markaziy Osiyo mintaqasida siyosiy, iqtisodiy va ijtimoiy barqarorlikni saqlash global va mintaqaviy xavfsizlik uchun muhim hisoblanadi [1] Ushbu jarayonda sport faqat madaniy-gumanitar soha sifatida emas, balki davlatlararo birdamlikni mustahkamlash vositasi sifatida ham katta ahamiyatga ega. O‘zbekiston, o‘zining sport an’analari va tashabbuslari bilan, mintaqadagi birdamlik siyosatining asosiy omillaridan biriga aylangan. Markaziy Osiyoning birdamligi siyosati va mintaqada barqarorlikni saqlashda O‘zbekiston sportining tarixiy roli bir necha muhim omillar bilan izohlanadi. Bu jarayonda sport faqat jismoniy faoliyat emas, balki madaniy, ijtimoiy va siyosiy jihatdan davlatlararo aloqalarni mustahkamlash vositasi sifatida o‘z o‘rnini topgan. Quyida ushbu mavzuga tegishli tarixiy dalillar va ilmiy asoslar keltiriladi. Sport millatlararo birlashuv vositasi sifatida yurtimiz va qardosh xalqlar tarixida muhim o’rin tutadi. Misol uchun Sovet Ittifoqi davrida sport mamlakat ichidagi turli millatlar, shu jumladan Markaziy Osiyo davlatlarini birlashtiruvchi vosita sifatida faol ishlatilgan. Toshkent, 1950-1980-yillarda, mintaqaning sport markazlaridan biriga aylangan. Bu davrda o‘zbek sportchilari xalqaro musobaqalarda nafaqat o‘z mamlakatini, balki mintaqani ham ifoda etgan. O‘zbekistondan kelib chiqqan milliy sport turi – **kurash,** boshqa Markaziy Osiyo davlatlarida ham ommaviylashdi. Bu milliy qadriyatlarni birlashtiruvchi sport turi sifatida mintaqaviy birdamlikka hissa qo‘shgan [2].**Pelé** (Edson Arantes do Nascimento) quyidagicha fikr bildirganda naqadar haq edi “Futbol yoki sport til, irq va madaniy farqlardan qat’i nazar, butun dunyo xalqlarini birlashtiruvchi universal tildir.”[10]. Pelé sportning global ahamiyatiga urg‘u beradi.

Mustaqillikdan keyin O‘zbekiston sportining yangi bosqichi boshlandi.bu davrda Milliy sportning rivojlanishi va mintaqaviy ta’siri yanada ortdi. 1991-yilda mustaqillik qo‘lga kiritilgach, O‘zbekiston sportni madaniy **diplomatiya vositasiga** aylantirdi. Toshkentda o‘tkazilgan xalqaro sport musobaqalari mintaqaviy birdamlikni mustahkamlashda muhim o‘rin tutgan. O‘zbekistonning yetakchiligida tashkil etilgan Markaziy Osiyo o‘yinlari mintaqa davlatlari

https://wordlyknowledge.uz/index.php/gpble
Qabul qilingan sana: 07.12.2025
Nashr etilgan sana: 30.01.2026

o‘rtasidagi sport hamkorligini mustahkamlashga xizmat qilgan. Bu musobaqalar nafaqat sportchilarning mahoratini oshirdi, balki davlatlar o‘rtasida **do‘stona aloqalar**ni rivojlantirdi [4] “Kurash”ni xalqaro sport turi sifatida targ‘ib qilishi muhim ijtimoiy xodisa bo’ldi. O‘zbekistonning xalqaro miqyosda kurash sport turini targ‘ib qilishi Markaziy Osiyo xalqlari madaniy birdamligini kuchaytirgan. **1999-yilda kurash Xalqaro Olimpiya Kengashining** tan olingan sport turlaridan biriga aylandi, bu esa Markaziy Osiyoning global sport maydonidagi birligini ifodalaydi[3]. O‘zbekistonning xalqaro sport musobaqalarini tashkil etishi mintaqadagi davlatlar uchun **birlashish** maydoni bo‘ldi. Masalan, 2003-yilda Toshkentda o‘tkazilgan Osiyo kurash chempionati butun mintaqa uchun sport birdamligi ramzi bo‘lgan.Ayniqsa yoshlar o‘rtasidagi sport musobaqalari mintaqadagi tinchlik va birdamlikni ta’minlashning muhim mexanizmi hisoblanadi. O‘zbekiston ushbu jarayonning tashabbuskorlaridan biri bo‘lib kelgan [1] Kuzatuvlarimizga ko’ra milliy sport turlari va xalqaro musobaqalar Markaziy Osiyo xalqlari o‘rtasida madaniy va tarixiy aloqalarni mustahkamlashga yordam bergan. Bu haqida “Markaziy Osiyoda sport orqali madaniy integratsiya” maqolasida P.Taylor batafsil to’xtalib o’tadi Jumladan, Ushbu maqolada Markaziy Osiyoda sportning madaniy integratsiyani ta'minlashdagi roli ko'rib chiqiladi. Xususan, xalqaro musobaqalar va milliy sport turlari orqali Markaziy Osiyo xalqlari o'rtasidagi madaniy va tarixiy aloqalar mustahkamlanishi, hamda sportning mintaqada madaniy o'zaro tushunishni rivojlantirishdagi ahamiyati tahlil qilinadi [5]. O‘zbekiston sporti tarixan nafaqat mamlakat ichidagi ijtimoiy birlashuvni mustahkamlagan, balki Markaziy Osiyo davlatlari o‘rtasidagi siyosiy va madaniy birdamlikning asosiy vositalaridan biri bo‘lgan. Bugungi kunda bu yo‘nalish xalqaro musobaqalar va mintaqaviy hamkorlik dasturlari orqali yanada kengaymoqda. Shu sababli, sport mintaqada barqarorlikni saqlash va birdamlikni mustahkamlashda asosiy omillaridan biri sifatida xizmat qilmoqda. Boks qiroli Muhammad Ali fikricha “Sport bizni birdamlik va bir-birimizni tushunishga o‘rgatadi. Bu dunyodagi eng yaxshi til birlashuvi vositasi.” [12] Bu so‘zlar

https://wordlyknowledge.uz/index.php/gpble
Qabul qilingan sana: 07.12.2025
Nashr etilgan sana: 30.01.2026


sportning universal birdamlikni shakllantirishdagi kuchini ko‘rsatadi. Markaziy Osiyoda sport iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy jihatdan katta o‘zgarishlar keltirmoqda. Kuzatuvlarimiz orqali mintaqadagi sportning o‘sish tendensiyasini O‘zbekiston, Qozog‘iston, Qirg‘iziston, Tojikiston va Turkmaniston misolida qiyosiy tahlil qilib, statistik ma’lumotlar orqali ilmiy dalillar keltiramiz.

Markaziy Osiyo mamlakatlari sport sohasini rivojlantirishga katta e’tibor qaratmoqda. Bunda xalqaro musobaqalarda erishilgan yutuqlar, infratuzilma rivoji va mintaqaviy hamkorlik asosiy o‘rinni egallaydi. So‘nggi yillarda Markaziy Osiyo mamlakatlari sport infratuzilmasini sezilarli darajada rivojlantirdi. Masalan: O‘zbekiston: 2017–2021 yillarda mamlakatda 100 dan ortiq sport majmuasi qurildi va ta’mirlashdan o‘tkazildi [16]

Qozog‘iston: 2021-yilda sport infratuzilmasiga 300 mln AQSh dollari ajratildi va mintaqadagi yetakchi sport majmualari tashkil etildi [14]


Qirg‘iziston va Tojikiston: Garchi iqtisodiy imkoniyatlari cheklangan bo‘lsa-da, ushbu davlatlar sport maktablari sonini oshirish va xalqaro musobaqalarda qatnashish ko‘rsatkichlarini yaxshilashga e’tibor qaratmoqda [17]. 2021–2023-yillar davomida Markaziy Osiyo davlatlari sport infratuzilmasiga investitsiyalarini 25 foizga oshirdi [17]

https://wordlyknowledge.uz/index.php/gpble
Qabul qilingan sana: 07.12.2025
Nashr etilgan sana: 30.01.2026



Xalqaro munosabatlarda Sport yutuqlarini o’rni muhim statistik ma’lumotlarga ke’tibor bersak; Masalan Parij Olimpiadasi 2024yil O‘zbekiston 25 ta yo‘llanmani qo‘lga kiritdi, bu esa mintaqadagi eng yuqori ko‘rsatkich hisoblanadi. Qozog‘iston 20 ta, Qirg‘iziston va Tojikiston esa 10 tadan yo‘llanma oldi. O‘zbekistonlik sportchilar 2023-yilda 150 dan ortiq xalqaro medal qo‘lga kiritgan bo‘lsa, bu ko‘rsatkich Qozog‘istonda 120 ni tashkil etdi [13]

Sport sohasidagi hamkorlik mintaqaviy barqarorlikni ta’minlashda muhim rol o‘ynaydi. O‘zbekiston murabbiylari Qirg‘iziston va Tojikiston sportchilarini tayyorlashda faol ishtirok etib, bu jarayonlarni birlashish vositasiga aylantirdi [15]



https://wordlyknowledge.uz/index.php/gpble
Qabul qilingan sana: 07.12.2025
Nashr etilgan sana: 30.01.2026

Mintaqaviy musobaqalarda qatnashuvchilar soni 2015-yildagi 3000 sportchidan 2023-yilda 10 000 sportchiga yetdi.

Markaziy Osiyo davlatlari sportning rivoji orqali nafaqat ichki barqarorlikni ta'minlamoqda, balki xalqaro maydondagi rolini ham kuchaytirmoqda. Statistik ma'lumotlar sportni iqtisodiy va madaniy taraqqiyotning muhim qismi sifatida baholashga imkon beradi. 2024-yil Parij Olimpiadasi Markaziy Osiyo davlatlari o'rtasidagi birdamlik va sport diplomatiyasini namoyon qildi. Ushbu musobaqada mintaqa davlatlari bir-birini qo'llab-quvvatlaganini o'zimiz guvohi bo'ldik. Aynan sport birdamlik, hamjihatlikni qo'shma mashg'ulotlar olib borilishida yanada jipslashdi Olimpiadaga tayyorgarlik jarayonida O'zbekiston sport bazalari Tojikiston va Qirg'iziston sportchilari uchun ochiq bo'ldi, bu esa mintaqaviy birdamlikni mustahkamladi[4].Parij Olimpiadasi davomida O'zbekiston delegatsiyasi qo'shni davlat sportchilarining g'alabalarini keng targ'ib qildi va madaniy qo'llab-quvvatlash namunasini ko'rsatdi [8].“Qirg'iziston prezidenti o'zbek boks murabbiyi Akmal Hasanovga avtomobil sovg'a qildi”deb nomlangan 11 sentyabr 2024 yil chiqqan maqolada



Aynan 11 sentabr kuni Qirg'iziston prezidenti Sadir Japarov o'zbekistonlik boks murabbiyi Akmal Hasanov bilan uchrashib, qirg'izistonlik bokschi Munarbek Seyitbek uuluning Olimpiadadagi muvaffaqiyatiga qo'shgan hissasi uchun unga Chevrolet Tracker avtomobilini sovg'a qildi. Japarov o'zbekistonlik murabbiyning

https://wordlyknowledge.uz/index.php/gpble
Qabul qilingan sana: 07.12.2025
Nashr etilgan sana: 30.01.2026

harakatlari Qirg‘iziston va O‘zbekiston xalqlari o‘rtasidagi do‘stlik va hamjihatlikni namoyon etganini alohida ta’kidladi. Bu Jumlalarga e’tibor bersak “Markaziy Osiyo davlatlari bir-birini qo‘llab-quvvatlab, hamjihatlik va do‘stona munosabatlar namoyish etayotganiga butun dunyo guvoh bo‘ldi”, — dedi Japarov Bu tarixiy voqiadan **Nelson Mandela**ning sport haqidagi fikrlar naqadar to’g’riligini ko’rishimiz mumkin U shunday degan edi “Sport dunyoni o‘zgartirish kuchiga ega. U ilhomlantirish, insonlarni birlashtirish va til yoki siyosatdan qat’i nazar, umumbashariy birdamlikni shakllantirish qudratiga ega.” Ushbu so‘zlar sportning mintaqaviy va global hamjihatlikni mustahkamlashdagi ahamiyatini ta’kidlaydi. Bu voqea butun dunyo matbuotlarida o’z aksini topdi Kun.uz - Ushbu maqolada O‘zbekistonlik bokschi murabbiyi Akmal Hasanovning Qirg‘iziston bokschisi Munarbek Seiitbek-uulu uchun murabbiylik qilgani yoritilgan. Qirg‘iz delegatsiyasidagi muammolar sababli Hasanov unga yordam bergan. Qirg‘iziston Prezidenti Hasanovning bu harakatini e’tirof etib, unga avtomobil sovg‘a qilganligi haqida so‘z yuritilgan. Jumladan Olympics.com - Maqolada O‘zbekistonlik Abdumalik Xalakovning oltin medal yutgani va Qirg‘izistonlik Munarbek Seiitbek-uulu kumush medalga ega chiqqani haqida ma’lumot berilgan. Shuningdek, Qirg‘iziston sportining tarixiy yutug‘i va unda O‘zbekiston murabbiyining ko‘rsatgan yordami qayd etilgan. Bu maqolalar Markaziy Osiyo davlatlarining sport orqali bir-birini qo‘llab-quvvatlashiga va mintaqaviy birdamlikni mustahkamlashga xizmat qilgan voqealarni tasdiqlaydi.

Sport mintaqaviy hamkorlikni mustahkamlash va madaniy aloqalarni rivojlantirishning asosiy vositalaridan biri bo‘lib, Markaziy Osiyoda barqarorlik va birdamlikni ta’minlash uchun muhim strategiya hisoblanadi. **Kofi Annan** “Sport madaniyatlararo muloqot uchun mukammal vosita. U mojarolarni kamaytiradi va insonlar o‘rtasida o‘zaro ishonchni oshiradi.”degandi [11]. Annan sportning tinchlik va barqarorlik o‘rnatishdagi rolini ta’kidlaydi.Bizning kuzatuvlarimiz va tahlillarimizga ko’ra quyidagi yo‘nalishlarga e’tibor qaratgan xolda kelajakda sportning mintaqaviy birlashuvdagi rolini yanada kuchaytirishi mumkin:

https://wordlyknowledge.uz/index.php/gpble
Qabul qilingan sana: 07.12.2025
Nashr etilgan sana: 30.01.2026

Birinchidan Mintaqaviy sport musobaqalarini kengaytirish- Markaziy Osiyo davlatlari o‘rtasida yil sayin o‘tkaziladigan sport o‘yinlari mintaqaviy birlashuvni rivojlantirishning samarali yo‘li sifatida e’tirof etiladi. Yosh sportchilar uchun musobaqalarni ko‘paytirish mintaqaviy birdamlikni mustahkamlashga yordam beradi.

Ikkinchidan milliy sport turlarini xalqaro miqyosda targ‘ib qilish. Kurash kabi milliy sport turlarini xalqaro arenaga olib chiqish orqali Markaziy Osiyo davlatlarining sportdagi birdamligini namoyish etish mumkin. Masalan, O‘zbekistonning kurashni rivojlantirishdagi sa’y-harakatlari mintaqa uchun kuchli madaniy brendni yaratishga xizmat qilgani. “Kurash: Milliy G'ururdan Xalqaro E'tirofgacha”. Maqolasida kurashning tarixiy rivojlanishi va uning milliy sport turi sifatida Markaziy Osiyo xalqlarida qanday o'rin tutganligi tahlil qilinadi. Maqola kurashning xalqaro miqyosda tan olinishi va uning dunyo bo'ylab keng tarqalishi jarayonini ko'rib chiqadi. Muallif, kurashni milliy g'urur ramzi sifatida ko'rib, uning sport sifatida rivojlanishi va xalqaro sport tadbirlarida tan olinishi uchun qanday yo'llar olinganini tahlil qiladi.Demakki kurash kabi boshqa milliy sport turlarini xalqaro miqyosda targ‘ib qilish Markaziy Osiyo xalqlarini birdamligiga hizmat qiladi

Uchinchidan Qo‘shma tayyorlov markazlarini tashkil etish zarur. Mintaqaviy sport akademiyalari va o‘quv markazlari murabbiylar va sportchilar o‘rtasida tajriba almashish imkoniyatini beradi. Ushbu dasturlar orqali birgalikda muvaffaqiyat qozonish mintaqaviy barqarorlikni ta’minlaydi

To’rtinchidan Sport diplomatiyasi orqali tinchlikni mustahkamlash. Sportni nizolarni hal qilish va ijtimoiy birdamlikni mustahkamlash vositasi sifatida ishlatish mintaqada tinchlikni mustahkamlaydi. Har yili o‘tkaziladigan sport diplomatiyasi forumi mintaqaviy birdamlikni mustahkamlashning muhim vositasi bo‘lishi mumkin.Jumladan **M.** Brown, 2022 yil Journal of Global Affairs jurnalida

https://wordlyknowledge.uz/index.php/gpble
Qabul qilingan sana: 07.12.2025
Nashr etilgan sana: 30.01.2026

nashr qilin “Markaziy Osiyoda Mintaqaviy Barqarorlik; Sport Diplomatiyasining Roli”. Maqolasida Markaziy Osiyoda sport diplomatiyasining mintaqaviy barqarorlikni ta'minlashdagi roli ko'rib chiqiladi. Muallif, sportning xalqaro munosabatlar va diplomatiya sohasida qanday vosita sifatida ishlatilishi mumkinligini tahlil qilib, sportning davlatlar o'rtasidagi aloqalarni yaxshilash va mintaqaviy xavfsizlikni mustahkamlashdagi ahamiyatini ta'kidlaydi. Maqola, ayniqsa, sportning diplomatik vosita sifatida qaysi mintaqalarda va qanday sharoitlarda samarali ishlatilishini o'rganadi. Demakki sport diplomatiyasi orqali tinchlikni mustahkamlash mumkin.

Xulosa

Markaziy Osiyoda sport davlatlararo madaniy va ijtimoiy birdamlikni ta’minlashda kuchli vositadir. Ushbu yo‘nalishlarni rivojlantirish nafaqat mintaqa mamlakatlarining ichki birligini mustahkamlaydi, balki ularning global sport maydonidagi o‘rnini yanada mustahkamlaydi.O‘zbekiston sportining mintaqaviy birdamlikni mustahkamlashdagi o‘rni tarixan muhim bo‘lib kelgan va bu jarayon bugungi kunda yangi marralarni zabt etmoqda. 2024-yil Parij Olimpiadasi Markaziy Osiyo davlatlarining sport orqali birlashishi va o‘zaro hurmatni kuchaytirishdagi yutuqlarini yaqqol ko‘rsatdi. Kelajakda sport vositasida mintaqaviy barqarorlikni yanada mustahkamlash imkoniyatlari kengayishi kutilmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati.

1. Brown, M. (2021). Markaziy Osiyoda mintaqaviy barqarorlik uchun sport vositasi. “Tinchlik Tadqiqotlari Xalqaro Jurnali”, 19(2), 150-167.
2. Karimov, S. (2018). O'zbekistonning an'anaviy sport turlari va ularning mintaqaviy ta'siri. “Markaziy Osiyo Sharhi”, 22(3), 78-92.

https://wordlyknowledge.uz/index.php/gpble
Qabul qilingan sana: 07.12.2025
Nashr etilgan sana: 30.01.2026

3. Rahmonov, A. (2015). Kurash: Milliy g'ururdan xalqaro tan olishgacha. “Sport Tarixi Jurnali”, 30(4), 101-120.

4. Smith, J. (2022). Markaziy Osiyo o'yinlari va mintaqaviy birlik. “Sport va Siyosat Jurnali”, 14(1), 45-60.

5. Taylor, P. (2022). Markaziy Osiyoda sport orqali madaniy integratsiya. “Dunyo Madaniyati Jurnali”, 18(5), 34-50.

6. Taylor, P. (2024). Olimpiya Birligi: Markaziy Osiyo dunyoga xabar yuboryapti. “Dunyo Sporti Xronikasi”, 50(4), 23-35.

7. Rahmonov, A. (2023). O'zbekistonda infratuzilma rivojlanishi va sport. “Markaziy Osiyo Iqtisodiy Jurnali”, 12(5), 90-112.

8. Jones, L. (2024). Parij Olimpiadasida madaniy birdamlik: Markaziy Osiyo nuqtai nazari. “Global Sport Tahlili”, 14(7), 78-94.

9. Mandela, N. (2000). Laureus Jahon Sport Mukofotlari marosimida nutq.

10. Pelé. (1977). “Mening hayotim va go'zal o'yin”. Doubleday.

11. Annan, K. (2003). “Birlashgan Millatlar Tashkiloti va Sportning rivojlanishdagi roli”.

12. Ali, M. (1981). “Intervyular va iqtiboslar to'plami”.

13. Xalqaro Olimpiya Qo'mitasi. (2023). “Olimpiya o'yinlari tahlili” International Olympic Committee. (2023). *Olympic Games analysis*. Retrieved from https://www.olympic.org

14. Baxtiyorovich, X. I. (2025). jismoniy madaniyat va sportning aholi salomatligi hamda uzoq umr ko‘rishdagi o‘rni: muammolar va yechimlar sotsiologik tahlil. “Global munosabatlar nazariyasi: yoshlarning taraqqiyot g‘oyalari” xalqaro ilmiy-amaliy anjumani materiallari, 1(2), 219-224.

https://wordlyknowledge.uz/index.php/gpble
Qabul qilingan sana: 07.12.2025
Nashr etilgan sana: 30.01.2026

15. Qozog'iston Sport Vazirligi. (2022). “Yillik sport rivojlanish hisobotlari”. Ministry of Sports of Kazakhstan. (2022). *Annual sports development reports*. Retrieved from https://www.sport.gov.kz

16. Pomfret, R. (2019). “21-asrda Markaziy Osiyo iqtisodiyotlari”. Princeton Universiteti Nashriyoti.

17. O'zbekiston Milliy Olimpiya Qo'mitasi. (2022). “O'zbekistonning sport sohasidagi yutuqlari”.

18. Jahon Banki. (2021). Markaziy Osiyo mintaqaviy rivojlanishi sport orqali. World Bank. (2021). *Central Asia regional development through sports*. Retrieved from https://www.worldbank.org